



SIYOSIY ATAMALARNI TARJIMA QILISHDAGI ASOSIY QIYINCHILIKLAR

*Kadirbergenov Raushanbek Sulaymanovich
O'zDJTU, Tarjimonlik fakulteti,
Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrası talabasi*

*"Turli jamiyatlar yashaydigan dunyolar bu — turli xil olamlar va bir xil bol-
magan dunyolardir”
Eduard Sapir*

***Annotatsiya.** Ushbu maqola siyosiy atamalarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan asosiy qiyinchiliklarni o'rganadi. Maqola to'rtta muhim jihatga e'tibor qaratadi, ular: madaniy farqlar, lingvistik farqlar, kontekstual farqlar va siyosiy-tarixiy qarama-qarshiliklar. Har bir bo'limda tarjimonlar aniqlikka intilishda qanday qiyinchiliklarga duch kelishini ko'rsatadigan misollar keltirilib o'tiladi. Shuningdek, Ushbu maqolada tarjimon siyosiy atamalarni tarjima qilish jarayonida madaniy va tarixiy tushunchalarni integratsiyalashtirilishi muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi va samarali tarjima tilni chuqur bilishdan tashqari, olinyotgan manba va ko'zlangan siyosiy auditoriyani hisobga olgan holda chuqur siyosiy tushunchalar bilimiga ega bo'lish va ularni mos tadbiriq qila olish mahoratini talab qiladi.*

***Kalit so'zlar:** Siyosiy atamalar, kontekstual farqlar, madaniy tafovutlar, lingvis-
tik farqlar, siyosiy tafovutlar, tarixiy tafovutlar, global muloqot, madaniy anglashuv*

***Annotation.** This article examines the main difficulties that arise in the process of translating political terms. The article focuses on four important aspects: cultural differences, linguistic differences, contextual differences, and political-historical contradictions. Each section provides examples of the challenges translators face in their pursuit of accuracy. Additionally, in this article, the translator emphasizes that it is important to integrate cultural and historical understanding in the process of translating political terms and effective translation requires a deep knowledge of the language as well as have a deep knowledge of political concepts, taking into account the source and the target political audience to adapt them. The translator must possess suitable skills to apply.*

***Key words:** political terms, contextual differences, cultural divergences, linguis-
tic variations, political discrepancies, historical discrepancies, global communica-
tion, cultural understanding*

***Аннотация.** Данная статья изучает основные трудности, возникающие при переводе политических терминов. В статье выделяются четыре ключевых аспекта: культурные различия, лингвистические различия, контекстуальные различия и политико-исторические противоречия. В каждом разделе приводятся примеры, иллюстрирующие сложности, с которыми сталкиваются переводчики в стремлении к точности. Кроме того, статья подчеркивает важность интеграции культурных и исторических понятий при переводе полити-*



ческих терминов. Автор отмечает, что для эффективного перевода, помимо глубокого знания языка, необходимы глубокие политические знания и умение учитывать как исходный источник, так и целевую политическую аудиторию.

Ключевые слова: политические термины, контекстуальные различия, культурные расхождения, лингвистические вариации, политические несоответствия, исторические несоответствия, глобальная коммуникация, культурное понимание.

Siyosiy atamalar xalqaro munosabatlar va siyosiy jarayonlarning murakkabligini aks ettiradi. Ularni tarjima qilishda lingvistik va madaniy to‘siqlar bilan yuzma-yuz kelinadi. Har bir davlat va mintaqaning o‘ziga xos siyosiy, tarixiy va madaniy kontekstlari mavjudligi sababli, bu atamalar turli tillarda farq qilishi mumkin. Tarjima jarayonida atamalarni to‘g‘ri lingvistik jihatdan ifodalash bilan birga, ularning xalqaro kontekstdagi o‘ziga xosliklarini saqlash ham muhimdir. Shuning uchun siyosiy atamalarni tarjima qilish nafaqat lingvistik vazifa, balki mintaqaviy siyosiy jarayonlarni chuqur tushunishni talab qiladigan murakkab jarayondir.

Shuningdek, bu jarayon siyosiy til va madaniyatning bir-biriga ta‘sirini ko‘rsatadi, chunki har bir termin o‘ziga xos konnotatsiyalar va tarixiy yuklarni olib keladi. Siyosiy atamalarning to‘g‘ri tarjimasi siyosiy muloqot va tushunish uchun juda muhimdir, chunki bu atamalar ko‘pincha xalqaro diplomatiya va xavfsizlik masalalarida asosiy rol o‘ynaydi va shuning bilan birgalikda atamalar siyosiy muloqotda va jamoatchilik fikrida katta ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Globalashuv davrida xalqaro aloqalar rivojlanishi bilan turli tillar o‘rtasidagi tarjimalar, ommaviy axborot vositalari, diplomatiya va ilmiy izlanishlar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq siyosiy atamalardagi kontekst va madaniy farqlar sababli noto‘g‘ri tarjima qilish xavfi juda yuqori. Bu esa siyosiy terminlarni aniq ifoda etishda va ularning ma‘nosini saqlashda qiyinchiliklar yaratadi. Ushbu maqolada siyosiy atamalarni tarjima qilishdagi asosiy muammolar tahlil qilinadi va bu jarayondagi murakkabliklar ko‘rib chiqiladi.

1. Madaniy Tafovutlar. Siyosiy atamalarni tarjima qilish jarayonida milliy madaniyatlar o‘rtasidagi tafovutlar har doim katta qiyinchilik tug‘dirib kelgan. Har bir xalq o‘z tarixiy va madaniy tajribasiga asoslangan holda ayrim atamalarni o‘ziga xos tarzda talqin qiladi. Shu sababli, tarjimon faqat o‘z tilidagi madaniy tafovutlarni chuqur tushunishi e‘tarli bolmaydi va undan tarjimadagi manba tili madaniyatini bilish ham talab qilinadi. Misol uchun, "Democracy"(demokratiya) atamasi G‘arb davlatlarida qonunlar, siyosat, rahbarlik va davlat yoki boshqa siyosatning asosiy majburiyatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita "xalq" tomonidan hal qilinadigan hukumat tizimi bo‘lib, "Hamdo‘stlik", "O‘z-o‘zini boshqarish", "Antitotalitar", "Vakillik hukumati", "Saylov huquqi" so‘zlari bilan birgalikda keladi. O‘zbekistonda esa "demokratiya" atamasining asosiy talablaridan ko‘pchiligi hokimiyati, fuqarolar teng huquqliligi, ular huquq va erkinliklari himoyalanganligi, konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi, hokimiyatning bo‘linishi, davlat boshlig‘i va vakolatli organlarning saylab qo‘yilishi tushiniladi va "huquqiy" "suveren" "ijtimoiy" va "dunyoviy" so‘zlari bilan birgalikda uchraydi. . Ba’zi hollarda, inson huquqlari G‘arb tomonidan

xalqaro bosim o‘tkazish vositasi sifatida ko‘rilishi mumkin va bu atama milliy xavfsizlik va suverenitet bilan ziddiyatga kirishi ehtimoli bor. Tarjima qilganda yoki ushbu atama haqida gapirganda, har xil siyosiy va madaniy kontekstlarda bu tushuncha qanday qabul qilinishini tushuntirish zarur bo‘ladi.

2. Lingvistik farqlari. Tillarning tuzilishi va atamalarni ifodalash uslubi ham tarjima jarayonida murakkabliklar tug‘diradi. Tarjima qilinayotgan manbaa tili va auditoriya tili o‘rtasidagi farqlar tillarda lingvistik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ikki til katta extimol bilan bir-biridan farq qiladi, chunki tillar odatda grammatik jihatdan farq qiladi. Bunga konstruksiyalar va idiomatik iboralar ham qo‘shilishi zarur. Ba’zi siyosiy atamalar bir tilda keng qo‘llaniladi va tushunarli bo‘lishi mumkin, lekin boshqa tilda aniq ekvivalenti yo‘q yoki umuman mavjud bo‘lmasligi mumkin.

Masalan, ingliz tilidagi "power" atamasi bir vaqtning o‘zida "davlat" va "hokimyat" yokida biror narsani qilish yoki muayyan tarzda harakat qilish qobiliyati degan ma'nolarga ega bo‘lib, tarjima jarayonida ushbu atamaning to‘g‘ri ishlatilishiga e’tibor qaratish lozim. O‘zbek tilida bu ma'nolar turli so‘zlar orqali ifodalanadi, shuning uchun noto‘g‘ri tarjima xato siyosiy tushunchalarga olib kelishi mumkin.

3. Kontekstual farqlar. Har bir siyosiy atama o‘z paydo bo‘lish konteksti bilan bog‘liq. Tarjimadagi kontekst farqlari kontekstning turli shakllari tufayli tillar o‘rtasidagi ma’noni uzatishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni anglatadi. Bular bir tildan, boshqa tilga nisbatan so‘z va iboralar qanday tushunilishini shakllantiruvchi lingvistik, madaniy va vaziyat elementlarini o‘z ichiga oladi. Tarjimonlar tarjimada matnning madaniy va umum ilmiy asoslari boyicha chuqur o‘rganishlari olib borishlari kerak. Bular, madaniyatni, maqsadli auditoriyani va tarjima maqsadini tushunishni o‘z ichiga oladi. Tarjimon qanchalik ko‘p ma'lumotga ega bo‘lsa, ular kontekstga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun shunchalik yaxshi bilimga ega bo‘ladi.

Misol uchun, o‘zbek tilidagi siyosiy manbalarni qaraydigan bo‘lsak, unda “xalq mafaatlari” so‘ziga duch kelamiz. Lekin bu so‘zni aniq bir ma’nosini boshqa tillarda topish qiyinroq bo‘lib sanaladi, chunki o‘zbek madaniyatida jamoaviylik va birlikka katta ahamiyat beriladi. G‘arb tillaridan biri hisoblangan Ingliz tilida bu so‘zga mos keladigan siyosiy altertaniv so‘z yo‘qligi sababli, manbalarda bu so‘zning o‘rniga ko‘pincha "the public interest" yoki "national prosperity" so‘zlari qo‘llaniladi. Shu sababli bu atama tarjima qilinayotganda, uni to‘g‘ri anglash va lingvistik farqlarini hisobga olish lozim.

4. Siyosiy va Tarixiy Tafovutlar. Siyosiy atamalar ko‘pincha tarixiy voqealar va siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, ularni tarjima qilishda har bir davlatning o‘ziga xos siyosiy va tarixiy jarayonlarini tushunish zarur. Ba’zan, ayni bir siyosiy atama turli mamlakatlarda har xil talqin qilinadi.

Misol uchun, "Balkanization" G‘arb davlatlarida mintaqa yoki davlatni kichikroq, ko‘pincha etnik yoki madaniy jihatdan bir hil bo‘linmalarga bo‘linish yoki bo‘linish jarayonini anglatadi. Odatda bu ziddiyat va beqarorlikka olib keluvchi atama hisoblanadi. Bu atama ko‘plab etnik guruhlar va tarixiy keskinlik sezilarli siyosiy parchalanishga olib kelgan Bolqon yarim orolidan kelib chiqqan atama sifatida qaraladi. Bu atama 1990-yillarda Yugoslaviyaning parchalanishidan kelib chiqqan va bunga klassik misoldir. Serblar, Xarvatlar, Bosniyaliklar va boshqalar o‘rtasidagi etnik

keskinlik bir qator zo'ravon to'qnashuvlarga olib keldi va natijada bir necha mustaqil davlatlar paydo bo'ldi. "Balkanization" etnik va madaniy parchalanishni o'z ichiga olgan murakkab geosiyosiy va siyosiy dinamikani tushunish uchun metafora bo'lib xizmat qiladi. U turli jamiyatlarda bo'linish va ziddiyatlar bilan bog'liq xavflarni ta'kidlaydi. O'zbek tilida esa bu atamani "Balkanlashuv", "Balkonlash yoki "Bolkanizatsiya" sifatida tarjimalarda qo'llanilishi mumkin va "lashuv" yokida "lash" qo'shimchalari orqali o'zbek tilida yo'q bo'lgan atama paydo bo'lyapti. Shuning uchun tarjima qilish jarayonida konteksga tayangan holda qo'llaniladi.

Xulosa

Siyosiy atamalarni tarjima qilish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u nafaqat lingvistik bilimlarni, balki madaniy, kontekstual va tarixiy omillarni chuqur tushunishni talab qiladi. Maqolada keltirilganidek, tarjimonlar ko'pincha madaniy tafovutlar, lingvistik nozikliklar, kontekstual farqlar va siyosiy-tarixiy qarama-qarshiliklar bilan yuzlashadilar. Ushbu jarayon har bir davlat va mintaqaning o'ziga xos siyosiy, tarixiy va madaniy kontekstlarini hisobga olishini taqazo etadi, chunki bir xil atama turli tillarda va kontekstlarda turlicha talqin qilinishi mumkin.

Aniq va to'g'ri tarjima qilish nafaqat tilni chuqur bilishni, balki manba tilidagi siyosiy va madaniy tushunchalarni anglashni, shuningdek, maqsadli auditoriya tilida ularga mos ekvivalent topishni ham talab qiladi. Bu jarayonda atamalarni noto'g'ri tarjima qilish yoki ularning ma'nosini to'g'ri saqlay olmaslik siyosiy noto'g'ri tushunchalarga, xalqaro muloqotda xatoliklarga va hatto diplomatik ziddiyatlarga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, siyosiy atamalarni tarjima qilish faqatgina lingvistik vazifa emas, balki mintaqaviy va xalqaro siyosiy jarayonlarni, tarixiy voqealarni va madaniy omillarni chuqur tushunishni talab etuvchi murakkab vazifadir. To'g'ri tarjima qilish nafaqat so'zlarning aniq tarjimasini, balki ularning konnotatsiyasi va ta'sirini ham hisobga olishni talab qiladi. Bu esa siyosiy muloqotning samaradorligini oshirib, xalqaro aloqalar va hamkorlikni yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Bassnett, Susan. Translation Studies. Routledge, 2013.
2. Munday, Jeremy. Introducing Translation Studies: Theories and Applications. Routledge, 2016
3. N.Qurbonova. Geosiyosiy atamalarni tarjima qilishdagi asosiy qiyinchiliklar
4. Common Problems in Translation of Political Texts: The Case of English and Kurdish Languages 2021
5. Strategies of Translating Political Texts Christina Schaffner. Aston University
6. O'zbek Tilshunoslik Terminologiyasi. Ixtiyor Ermatov (2021).79-83
7. Baker, Mona va Saldanha, Gabriela. Routledge Encyclopedia of Translation Studies. Routledge, 2009.
8. The importance of practicing cultural translation. Erik Angelone
9. Language plurality as power struggle, or Translating politics in Canada. Ganon Chantal (2006)
10. The Translator's Invisibility. Lawrence Venuti (2008)